



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aytiyeva Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI.....	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	155
Axmedov Sanjar Temur o'g'li	
POPULATION IMPACT ON CONSUMER CULTURE AND NATIONAL ECONOMIC GROWTH.....	160
Rustamov Sherov Oblokulovich	
AVTOTRANSPORT KORXONALARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI VA ULARNI YAXSHILASHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.....	164
Laylo Akbarova, Komolov Adxam Dilshod o'g'li	
MODELING THE DIFFUSION OF DIGITAL BANKING ADOPTION IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FROM TBC BANK USING THE BASS DIFFUSION MODEL AND A HYBRID REGRESSION APPROACH	169
Feruza Nabieva	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK XARAJATLARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISH VA BAHOLASH	176
Rabbimov Elbek Abdulloyevich, G'afforov Ilhom Ilyosjonovich, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
O'ZBEKISTONNING YANGI BOZORLARGA CHIQUISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI.....	183
Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-KONSEPTUAL ASOSLANISHI.....	188
Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH VA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	194
Turg'unov Nodirbek Muminjanovich	
SANOAT KORXONALARI TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMI	198
Jabborov Elbek Erkin o'g'li	
SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISHNING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	202
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
MINTAQALAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLARNI KAMAYTIRISHNI TA'MINLASHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	208
Egamov Temur Muzaffarovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLYAVIY RAG'BATLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	213
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURLIGI.....	217
Achilova Firuza Kurbanovna	
INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI MAXSUS IQTISODIY ZONALARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	222
Ergashev Olim	



KICHIK BIZNES INNOVATSION FAOLIYATINING RIVOJLANISHIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR	227
Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINING O'RNI VA AHAMIYATI	233
Isakjanova Saboxat Muhamedovna	
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA AKSIYADORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	238
Xakimov Uchkun Xamitovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY MAKROIQTISODIY SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	242
Mardanova Ra'no Isakovna	
XUSUSIY VA DAVLAT SHIFOXONALARI UCHUN RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI QIYOSIY TAHLIL	246
Yakubov Temur G'anibekovich	
RAQAMLI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA RESURS SAMARADORLIGI VA IQTISODIY NATIJADORLIK MODEL	250
Ziyodullayev Qahramon	
"MILLIY TURIZM SITUATSION-MONITORING MARKAZI" VA "YASHIL TUROPERATORLAR" FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI	254
Toshev Akmal Salimovich	
RISK-MENEJMENT VA MOLIVAVIY BARQARORLIK O'ZARO BOG'LIQLIGINING KONSEPTUAL MODELINI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	261
Madaminov Bekzod Allayarovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT: BAHOLASH METODOLOGIYASI, DINAMIKASI VA QISQARTIRISH ISTIQBOLLARI (1996 – 2026-YILLAR TAHLILI)	266
Djumanova Rano Fayzullayevna	
OLIY TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA MAJMUALI DIAGNOSTIK MODELNING AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	272
Xo'jaxanov Ma'rufxon Xamidxonovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	278
Vafiyev Raxim Xalimjonovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
Nigora Nurmatova	



INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Nigora Nurmatova

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Kompaniyalarning investitsion faolligini oshirish ularning investitsiya loyihalarini tijorat banklari tomonidan kreditlash amaliyotining samaradorligi va takomillashganlik darajasiga bevosita bog'liq. Chunki tijorat banklarining investitsion kreditlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning muhim va barqaror manbalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada O'zbekiston tijorat banklarining investitsiya loyihalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va mavjud imkoniyatlari ilmiy asosda tahlil qilingan hamda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, investitsiya loyihasi, investitsion kredit, foiz stavkasi, qayta moliyalash stavkasi, majburiy zaxira, inflyatsiya, valyuta kursi o'zgarishi.

Abstract. Enhancing companies' investment activity is directly linked to the effectiveness and advancement of commercial bank lending practices for investment projects. Investment loans provided by commercial banks represent one of the key and stable sources of financing for such projects.

This article analyzes the organizational and economic mechanisms for improving investment project lending practices in commercial banks of Uzbekistan and proposes relevant recommendations based on scientific assessment.

Key words: commercial bank, investment project, investment loan, interest rate, refinancing rate, required reserve, inflation, exchange rate fluctuations.

Аннотация. Повышение инвестиционной активности компаний напрямую связано с эффективностью и уровнем развития практики кредитования инвестиционных проектов коммерческими банками. Инвестиционные кредиты коммерческих банков выступают одним из ключевых и устойчивых источников финансирования инвестиционных проектов.

В статье проведён научный анализ организационно-экономических механизмов совершенствования практики кредитования инвестиционных проектов коммерческими банками Республики Узбекистан, а также разработаны соответствующие предложения и рекомендации.

Ключевые слова: коммерческий банк, инвестиционный проект, инвестиционный кредит, процентная ставка, ставка рефинансирования, обязательные резервы, инфляция, изменение валютного курса.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida xususiy sektorning bank tizimidagi ulushini 60 foizga yetkazish hamda investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasida banklar infratuzilmasini modernizatsiya qilish, faoliyatni avtomatlashtirish, zamonaviy bank standartlari, axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda ularning investitsion jozibadorligini oshirish bank tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida e'tirof etilgan [2].

Mazkur strategik vazifalar tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish, kreditlash mexanizmlarini samarali tashkil etish hamda investitsion faollikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini belgilaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M.V. Alikaeva, L.O. Aslanova va boshqa mualliflarning fikriga ko'ra, "investitsion bank krediti, odatda, loyihaning qoplash muddatidan oshmaydigan davrga, qoida tariqasida, bir yildan kam bo'lmagan muddatga beriladi hamda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari doirasida tuzilgan shartnomalar bo'yicha to'lovlar bilan hujjatli tasdiqlanishi lozim bo'lgan maqsadli xarakterga ega bo'ladi" [3].

Mazkur ta'rifda investitsion kreditning loyihaning texnik-iqtisodiy asosiga muvofiq qoplash muddatidan oshmaydigan davrga berilishi to'g'ri qayd etilgan. Biroq uning kamida bir yil muddatga berilishi haqidagi yondashuv barcha investitsiya loyihalarini uchun universal mezon sifatida qabul qilinishi murakkab masala hisoblanadi. Chunki amaliyotda qisqa muddatli investitsion moliyalashtirish shakllari ham uchrab turadi.

Beloglazova G.N. investitsion kreditni "asosiy kapital harakatiga xizmat qiluvchi uzoq muddatli kredit bo'lib, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishni kengaytirish, qurilish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish, yangi ishlab chiqarishlarni o'zlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqa tadbirlarni moliyalashtirishda qo'llaniladi", deb ta'riflaydi [4]. Ushbu ta'rif investitsion kreditning maqsadli yo'nalishlarini kengroq yoritadi, ammo uning iqtisodiy mohiyati va risk xususiyatlarini chuqurroq ochib berish imkoniyatlari mavjud.

Ye.V. Babushkin va A.A. Osipovalarning fikricha, "investitsion kredit — bu yuridik shaxslarga korxonani va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish uchun ajratiladigan kredit bo'lib, majburiyatlarni qoplash manbai sifatida qarz oluvchining xo'jalik faoliyatidan, jumladan, investitsiya loyihasidan olinadigan daromadlar xizmat qiladi" [5]. Mazkur yondashuvda kreditni qaytarish manbalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu investitsion kreditning iqtisodiy mazmunini tushinishda muhim ahamiyat kasb etadi.

A. Burova, G. Penikas va S. Popovalarning xulosasiga ko'ra, defoltni aniqlashda Bazel qo'mitasining prudensial me'yorlariga muvofiq 90 kun va undan ortiq muddatdagi qarzdorlikni asos sifatida olish maqsadga muvofiqdir. Ularning fikricha, bankrotlik ko'pincha defoltning 3–5 yilga kechikkan indikatori sifatida namoyon bo'ladi [6]. Ushbu yondashuv kredit risklarini baholashda xalqaro standartlarning ahamiyatini ko'rsatadi.

M. Bauetdinov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kreditlar va ular bo'yicha foiz to'lovlari muddati bir necha bor uzaytirilgan holatlar mavjudligini ko'rsatadi. Ayrim investitsiya loyihalarining belgilangan muddatlarda ishga tushirilmaligi, eksport rejalari to'liq amalga oshirilmaligi hamda tashqi moliyalashtirish manbalari hisobidan olingan kreditlar bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmaligi banklarning uzoq muddatli kreditlari qaytarilishiga ta'sir ko'rsatgan [7]. Ushbu holatlar investitsiya loyihalarini tanlash, monitoring qilish va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

N. Karimov investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suradi [8]:

- qimmatli qog'ozlar garovi asosida berilgan investitsion kreditlar bo'yicha garov obyektini realizatsiya qilishda ehtimoliy yo'qotishlar zaxirasini ssuda qoldig'idan chegirib tashlash tartibini qayta ko'rib chiqish;
- xorijiy yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etiladigan uskunalar sifati bo'yicha xalqaro bank kafolatlaridan foydalanishni kengaytirish;
- investitsiya loyihasi mahsulotlarini eksport qilish jarayonida shartnomaviy munosabatlarni normativ-huquqiy asosda takomillashtirish;
- hukumat kafolati asosida jalb etiladigan xalqaro kreditlar hamda sinditsiyalashtirilgan kreditlarni tartibga solish mexanizmlarini yanada rivojlantirish.

Mazkur ilmiy qarashlar investitsion kreditlash tizimini rivojlantirish, kredit risklarini kamaytirish hamda investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklarining investitsiya loyihalarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy tahlil usullarining uyg'unligiga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati sezilarli darajada erkinlashdi, soliq yuklamalari optimallashtirildi va investitsion muhit yanada yaxshilandi. Fiskal ochiqlikning oshishi hamda bozor mexanizmlarining kengayishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligida ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, mazkur barqarorlikni yanada mustahkamlash va uzoq muddatli barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.



Yirik davlat korxonalarida moliyaviy boshqaruv tizimining nisbatan shakllanganligi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada ushbu korxonalarda moliyaviy ko'rsatkichlarning barqarorligi kuzatiladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga yuqori darajada tayanish kelgusida moliyaviy mustaqillikni oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa moliyaviy barqarorlikni bozor tamoyillari asosida yanada mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha choralarni talab etadi.

Respublikamizda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi debitor qarzdorlik hajmining yuqoriligi ularning investitsion kreditlardan foydalanish imkoniyatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur holat iqtisodiyotda pul mablag'lari aylanish tezligining yetarli darajada emasligi, korxonalarning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish darajasining nisbatan pastligi hamda joriy aktivlar tarkibida likvid mablag'lar ulushining cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu bois moliyaviy intizomni kuchaytirish, hisob-kitob tizimini takomillashtirish va likvidlikni oshirish investitsion faollikni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar yetakchi o'rinni egallamoqda. Tijorat banklarining investitsion kreditlari esa umumiy hajmda nisbatan kamroq ulushga ega bo'lib qolmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va uning hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va tijorat banklari kreditlarining ulushi¹=

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari, trln. so'm	210,2	239,6	266,2	356,1	493,7
Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi, %	13,6	12,6	13,9	23,7	30,5
Asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarining umumiy hajmida tijorat banklari kreditlarining ulushi, %	13,5	8,1	7,9	6,3	2,6

1-jadval ma'lumotlaridan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- mamlakat iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari hajmi 2020–2023-yillarda barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan;
- asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar manbalari tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi 2021–2024-yillarda izchil oshgan;
- respublika iqtisodiyotida investitsiyalarni moliyalashtirishning umumiy hajmida tijorat banklari kreditlarining ulushi 2020–2024-yillarda nisbatan pasayish dinamikasini ko'rsatgan.

Mazkur tendensiyalar investitsiya jarayonlarida xorijiy kapital ishtirokining ortib borayotganini, shu bilan birga, tijorat banklari kreditlarining ulushini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli kreditlar salmoqli o'rin egallaydi. Bu esa banklar tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti faol rivojlanayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash doirasida 539 mingdan ortiq loyihaga tijorat banklari tomonidan jami 160 trln so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirilgan. Ushbu mablag'larning 92,4 trln so'mi (2023-yilga nisbatan 26 foizga ko'p) kichik va o'rta biznes subyektlari, jumladan, oilaviy tadbirkorlik, xotin-qizlar va yoshlarning tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, 538 mingdan ortiq loyiha moliyalashtirilgan [9].

Mazkur ko'rsatkichlar bank tizimining real sektorni qo'llab-quvvatlashdagi o'ni mustahkamlanib borayotganini va investitsion faollikni rag'batlantirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi (2-jadval).

1 Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan.



2-jadval. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlarining miqdori va darajasi


Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024
Uzoq muddatli kreditlar, mlrd. so'm	291399	338918	410225	457109
Uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, %	85,0	86,9	98,3	85,7

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki:

– respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan uzoq muddatli kreditlarning hajmi 2021–2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

– mamlakat tijorat banklari tomonidan berilgan uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2021–2023-yillarda oshish tendensiyasini namoyon etgan. Shuningdek, uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi 2024-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Mazkur dinamik ko'rsatkichlar tijorat banklari tomonidan investitsion va uzoq muddatli moliyalashtirish amaliyotining kengayib borayotganini anglatadi. Bu esa real sektor loyihalarini qo'llab-quvvatlash, asosiy kapitalni modernizatsiya qilish hamda iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda bank kreditlarining roli ortib borayotganidan dalolat beradi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning salmog'i, foizda²

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining umumiy hajmida muammoli kreditlarning ulushi 2021–2024-yillarda nisbatan yuqori darajada shakllangan. Shuningdek, muammoli kreditlarning ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

– investitsion kredit – asosiy kapital harakatiga xizmat qiluvchi uzoq muddatli kredit bo'lib, asosiy fondlarni takror ishlab chiqarishni kengaytirish, qurilish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish, yangi ishlab chiqarishlarni o'zlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqa investitsion tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladi;

– defoltni aniqlashda Bazel qo'mitasining muddati o'tgan kreditlar bo'yicha prudensial me'yorlariga muvofiq 90 kun va undan ortiq muddatdagi qarzdorlikni asos sifatida olish maqsadga muvofiq bo'lib, bankrotlik defoltning 3–5 yilga kechikkan indikator sifatida namoyon bo'lishi mumkin;

– respublikamizda Hukumat kafolati asosida jalb etilayotgan xalqaro kreditlar rolining ortib borishi sinditsiyalashtirilgan kreditlarni jalb etish va ulardan foydalanishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi;

– mamlakat iqtisodiyotida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari 2020–2023-yillarda o'sish tendensiyasini namoyon etgan;

2 Rasm muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.



- investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari umumiy hajmida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi 2021–2024-yillarda oshgan;
- asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish umumiy hajmida tijorat banklari kreditlarining ulushi 2020–2024-yillarda pasayish tendensiyasini ko'rsatgan;
- respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 2021–2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;
- uzoq muddatli kreditlarning jami kredit portfelidagi ulushi 2021–2023-yillarda oshgan hamda 2024-yilda 2021-yilga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan;
- O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlari umumiy hajmida muammoli kreditlarning ulushi 2021–2024-yillarda nisbatan yuqori darajada shakllangan hamda 2024-yilda 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida, respublikamiz tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Investitsiya loyihalarini kreditlash jarayonida moliyaviy risklarni boshqarishni kuchaytirish maqsadida:
 - tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni baholash aniqligini oshirish;
 - loyiha tashabbuskorining o'z mablag'lari ulushini investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbalari tarkibida ko'paytirish;
 - investitsiya loyihalarini banklarning kredit liniyalari orqali moliyalashtirish ko'lamini kengaytirish;
 - investitsiya loyihalarining moliyaviy samaradorligini diskontlangan pul oqimi (DCF) usuli asosida baholashni amaliyotga keng joriy etish.
2. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditlarning o'z vaqtida va to'liq qaytarilishini ta'minlash maqsadida:
 - qarz oluvchilarning joriy likvidligi va defolt ehtimolini baholash tizimini takomillashtirish;
 - investitsiya loyihalari bo'yicha eksport tushumlarining o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini ta'minlash uchun tijorat banklari kafolatlari hamda chaqirib olinmaydigan hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
 - kredit riskini baholashning "standartlashgan yondashuv" usulini qo'llash orqali loyihalarni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar bo'yicha risk darajasining ortib ketishining oldini olish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – URL: <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli Farmoni. "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida". // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 06/20/5992/0581-son. – URL: <https://lex.uz>
3. Аликаева М. В., Асланова Л. О. и др. Стратегическое развитие малого бизнеса и формы поддержки индивидуального предпринимательства: монография. – Нижний Новгород: НОО «Профессиональная наука», 2018. – С. 68. – URL: <https://www.scipro.ru>
4. Белоглазова Г. Н. Деньги, кредит, банки. – М.: Юрайт, 2009. – С. 134.
5. Бабушкин Е. В., Осипова А. А. Особенности рынка банковского инвестиционного кредитования предприятий в РФ // Проблемы учета и финансов. – 2014. – № 2 (14). – С. 41.
6. Бурова А., Пеникас Г., Попова С. Применение модели вероятности дефолта для оценки прогнозируемого кредитного риска // Деньги и кредит. – 2021. – № 3. – С. 49–72.
7. Бауетдинов М. Ж. Хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион харажатларини молиялаштириш амалиётини такомиллаштириш: и.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019. – 114 б.
8. Каримов Н. Г. Иқтисодий интеграциялашув шароитида инвестицияларни молиялаштиришнинг бозор механизмларини жорий этиш муаммолари: и.ф.д. илм. дар. олиш учун тақдим этилган дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 40 б.
9. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. 2024 йилдаги феолият юзасидан ҳисобот. – Тошкент, 2025. – Б. 56. – URL: <https://www.cbu.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>